

BOSH PIYOZNING YANGI TANLANGAN “K-137” NAVINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

G'ulomov Boburbek Baxrombek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247800>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jahon genofondi kolleksiyasidan foydalangan holda uning ertapisharlik, tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchan, mahsuldorlik belgilari yuqori bo'lgan, hosildor va eksportbop mahsulot yetishtirishda piyozning “K-137” navini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilingan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: piyoz, nav, genofond, hosildorlik, sentner, kolleksiya, iqtisodiy samaradorlik, eksport, rentabellik.

Аннотация: В данной статье приведены данные об экономической эффективности выращивания сорта лука «К-137», используя коллекцию мирового генофонда, с учетом его раннеспелости, адаптированности к почвенно-климатическим условиям, высоких показателей урожайности и пригодности для получения экспортно-ориентированной продукции.

Ключевые слова: Лук, сорт, генофонд, урожайность, центнер, коллекция, экономическая эффективность, экспорт, рентабельность.

Abstract: This article presents data on the economic efficiency of cultivating the onion variety "K-137" using the global gene pool collection, taking into account its early maturity, adaptability to soil and climatic conditions, high yield indicators, and suitability for producing export-oriented products.

Keywords: Onion, variety, gene pool, yield, centner, collection, economic efficiency, export, profitability.

Piyoz (*Allium cepa* L.) – O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida yetishtiriladigan eng muhim sabzavot ekinlaridan biridir. U oziq-ovqat mahsuloti sifatida ahamiyatli bo'lishi bilan birga, ichki bozorni ta'minlash va eksport imkoniyatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Piyoz yetishtirishda zamonaviy agrotexnik tadbirlar, sifatli urug'lik materiallari va ilmiy asoslangan texnologiyalarni qo'llash orqali yuqori hosil olish mumkin. Bu esa xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy foyda beradi.

Ishlab chiqarishga, nafaqat, yuqori hosil beradigan ekin va nav zarur, balki u yuqori foyda olishni ham ta'minlashi kerak. Shularni hisobga olgan holda, bosh piyozni turli muddatlarda yetishtirishda nazorat navga nisbatan yuqori hosil bergan bosh piyozning k-137 nav namunalari iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha tahlil o'tkazildi (1-jadval).

“Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik karta” asosida aniqladik. Bosh piyozning k-137 va nazorat nav Zafar navlarini yetishtirish uchun yerni ekishga tayyorlash ishlariga (haydov, tekislash, egat olish) bir gektar hisobiga 3 500 ming so'm xarajat qilindi. Urug'liklarga bo'lgan xarajatlar jami bir gektar uchun o'rtacha 2 700 ming so'm xarajatlar bajarildi. Urug'larni ekish va o'simliklarni parvarishlash, shu jumladan sug'orish, begona o'tlardan tozalash, o'g'itlash uchun qilingan xarajatlar 9 500 ming so'mni tashkil etdi. Ekilgan bosh piyozning navlarini o'suv davri davomida jami 2 marta, har bir gektar hisobiga 180 kg azotli o'g'itlar bilan oziqlantirildi. Hosilni yig'ish va uni ortish uchun bajarilgan xarajatlar k-137 va Zafar navlarida aniqlandi. Ulardan olingan mahsulotni yig'ish va ortish uchun 4500 - 5200 ming so'm xarajatlar amalga oshirildi. Yerni ekishga

tayyorlash, urug'likka va uni ekishga hamda parvarishlashga qilingan xarajatlar va bevosita xarajatlar jamlanib, umumiy xarajatlar hisoblandi. Natijada umumiy xarajatlar k-137 nav-namunasini yetishtirishda 29250 ming so'm va Zafar navida esa 27875 ming so'm bajarilganligi ma'lum bo'ldi. K-137 nav namunasi yetishtirishda qilingan xarajatlar nazorat Zafar naviga nisbatan 1375 ming so'mga yoki 4,9 % ga yuqori bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida piyozni 1 kg tovarbop hosili ko'tara (optoviy) sotuvda 1800-2500 so'mdan sotilishi hisobga olingan holda, hosilini ko'tara sotish bo'yicha 2000 so'mdan hisoblandi.

1-jadval

Bosh piyozning k-137 nav namunasiga nisbatan yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi, ga/ming.so'm.

t/r	Ko'rsatkichlar	Nav namunalar	
		k-137	Zafar, st.
1.	2	3	4
2.	Yerni ekishga tayyorlash, ming so'm	3 500	3 500
3.	Urug'liklarga bo'lgan xarajatlar, ming so'm	2 700	2 700
4.	Parvarishlash, ming so'm	9 500	9 500
5.	Hosilni yig'ishtirish, ortish, ming so'm	5 200	4 500
6.	Hosilni tashish, ming so'm	2 500	2100
7.	Jami xarajatlar, ming so'm	23 400	22 300
8.	Bevosita xarajatlar, (25%)	5 850	5 575
9.	Umumiy xarajatlar, ming so'm	29 250	27 875
10.	Tovarbop hosildorlik, t/ga.	43,7	33,6
11.	1 t hosil narxi, ming so'm	2000	2000
12.	Sotilgan mahsulot narxi.	87 400	67 200
13.	1 t hosil tannarx. (9:10)	669	829
14.	Sof foyda, ming so'm	58 150	39 325
15.	Rentabellik, % (14:9)	198	141

Bundan sotilgan mahsulotni narxini hisoblanganda eng yuqori sotilgan mahsulot narxi k-137 nav namunasini 87400 ming so'mni tashkil etganligi aniqlandi. Olingan sof foydani aniqlashda hosil sotish bahosidan har bir gektar uchun qilingan jami xarajatlarni chiqarib yuborildi va bunda eng yuqori sof daromad yuqori bo'lgan xarajatlarga qaramay k-137 nav namunasida yuqori 58 150 ming so'mda bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich andoza Zafar naviga nisbatan 18 825 ming so'mga yuqori bo'ldi.

Sinalgan bosh piyozning k-137 nav namunasi va Zafar navlarining hosildorligi oshib borgan sari 1 tonna mahsulotning tannarxi arzonlashib borganini hisoblashlar davomida aniqlandi k-137 nav namunasi va Zafar navlarini 1 tonna mahsulotini tannarxi (669-829 ming so'm) bo'ldi. Mahsulot yetishtirishning rentabellik darajasi Zafar navida 141,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, k-137 nav namunasi bu ko'rsatkich 198 % bo'ldi. Yuqoridagi bajarilgan hisoblash natijalari bosh piyozning k-137 nav namunasi iqtisodiy samarali ekanligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raximov A., Ismoilov A. O'zbekiston sharoitida piyoz seleksiyasi va urug'chiligi. –

Toshkent: Mehnat, 1992. – 138 b.

2. Биргит, Б. Особенности фотопериодической регуляции роста и развития у разных экотипов лука репчатого (*Allium Сера L.*): автореф. дисс. канд. биол. наук // Б. Биргит. - М., 1992 – С.24.
3. Nurmatov D.N. Piyoз o'simligining agrobiologik xususiyatlari va ularni yaxshilash yo'llari. – Qarshi: Nasaf, 2010. – 120 b.
4. Калугин, А.В. Перспективные сорта и гибриды лука репчатого // ГАВРИШ № 2, 2008 – С.6-7.